



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH

Fayziyeva M.X.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM “Pedagogika va o’qitish metodikasi”
kafedrasini professori, ps. f. d.

Toshqulov Rasul Eshquvvat o’g’li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM PIM-705-24 guruh magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning intellektual salohiyatini oshirish masalasi tahlil qilinadi. Intellektual rivojlanish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodlar va kreativ yondashuvlar orqali talabalar bilimini chuqurlashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar, ilg‘or o‘quv-uslubiy yondashuvlar va zamonaviy ta’lim platformalarining ahamiyati hamda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning intellektual salohiyatga ta’siri tahlil etiladi. Maqolada oliy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning samarali yo‘llari ham bayon etilgan.

Kalit so’zlar. Intellektual salohiyat, oliy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, kreativ yondashuv, pedagogik metodlar, kitobxonlik madaniyati.

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос повышения интеллектуального потенциала студентов. Интеллектуальное развитие является важной составляющей современного образовательного процесса, при этом выделены возможности углубления знаний учащихся посредством инновационных технологий, педагогических методов и творческих подходов. Также анализируется значение реформ в системе высшего образования, передовых учебно-методических подходов и современных образовательных платформ, влияние развития культуры чтения молодежи на интеллектуальный



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

потенциал. Также в статье описаны эффективные способы взаимодействия преподавателей и студентов в процессе высшего образования.

Ключевые слова. Интеллектуальный потенциал, высшее образование, инновационные технологии, творческий подход, педагогические методы, культура чтения.

Annotation

This article analyzes the issue of increasing the intellectual potential of students. Intellectual development is an important component of the modern educational process, and the possibilities of deepening students' knowledge through innovative technologies, pedagogical methods and creative approaches are highlighted. It also analyzes the reforms in the higher education system, the importance of advanced educational and methodological approaches and modern educational platforms, and the impact of developing a reading culture of young people on intellectual potential. The article also describes effective ways of interaction between teachers and students in the process of higher education.

Keywords. Intellektual salohiyat, oliy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, kreativ yondashuv, pedagogik metodlar, kitobxonlik madaniyati.

KIRISH

Istiqlol egalari bo'lmish yosh avlodni bilimli, savodxon, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi-murabbiylarning hissasi benixoya kattadir. Ular berayotgan puxta bilim va ibratli tarbiya katta hayot ostonasida turgan o'g'il-qizlarning vatanparvar hamda hayotda chin inson bo'lishlari, Vatanimizga, xalqimizga fidoiy va halol xizmat qiladigan insonlar bo'lib yetishishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", deb yozgan edilar. Bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun har qanday ta'lim muassasasi jadal harakatlar asosida faoliyat olib bormoqda. Bu yo'lda maktabgacha ta'lim muassasi,



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

maktab, kollej, litsey va oliv ta'lim muassasida yosh avlod chuqur bilim egasi bo'lib yetishib chiqadi. Ayniqsa oliv ta'lim muassasi juda ahamiyatli. Chunki talaba bu yerdan yetuk kadr va oliv ma'lumotli inson bo'lib shakllanadi. Shu o'rinda oliv ta'limga e'tiborimizni qaratamiz. Oliy ta'lim — turli oliv maktablarda yuqori, oliv malakali mutaxasislar tayyorlash maskanidir. Oliy ta'lim oliv o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo'yicha oliv malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasbhunar ta'limini olgan kishilarga ilmiy-nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalar shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim jarayonida talabaga oliv ma'lumot beriladi. Oliy ma'lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi. Yaqinda Prezidentimiz oliv ta'lim sohasi bo'yicha ikkita tarixiy qarorni imzoladi. "Davlat oliv ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Davlat oliv ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyatga ega. Ikkala qaror ham oliv ta'lim tizimi uchun juda katta yangilik bo'ldi. Bundan ko'zlangan maqsad jamiyatga har tomonlama mukammal shaxsni yetkazib berishdir[1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Talabaning intellektini rivojlantirish pedagog-psixologlardan mashaqqatli harakatni talab qiladi. Bugungi kunda oliv ta'lim tizimida ham islohotlar sezilarli sur'atlarda o'sib borayotgani, innovatsion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim tizimida o'z o'rnini topib bormoqda. Masalan, ko'pchilik oliv ta'lim muassasalari ta'lim berishning kredit-modul tizimiga o'tdi, o'qish va o'qitishning ilg'or usullari, o'quv jarayonida foydalaniladigan metodlar, o'quv jarayonini kreativroq tashkil etish, oliv ta'limni innovatsion rivojlanishi uchun axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim platformalaridan foydalanish hamda oliv ta'lim muassasalarida kasb va ixtisoslik fanlarini o'qitishga ajratilgan soatlar ko'paytirilmoqda. Bularning bari o'qituvchi va talabalarning kompyuter savodxonligini oshirishda yuqori



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

natijalarni erishishga yordam beradi. Zamon takomillashgani sari insonlarning fikrlash doirasi ham o'sib boradi. Shuningdek, O'zbekistonda zamonaviy o'quv dasturlari asosida ta'lif berayotgan xorijiy va xususiy universitetlar faoliyat yuritmoqda. Ulardagi ta'lif sifati yetarli darajadadir. Ta'lif sohasi uchun yangidan yangi imkoniyat yo'llarini ochilmoqda. Yoshlar bunday imkoniyatlardan oqilona foydalana olsa kifoya.

Mamlakatimizda yoshlarga sifatli oliy ta'lif berish, taraqqiyot bilan hamqadam bo'lib kelayotgan mutaxassislarni tayyorlash borasida ham izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lif sohasidagi islohotlar, avvalo qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. So'nggi 5 yil davomida oliy ta'lif tizimini takomillashtirish maqsadida 12 ta Prezident farmoni, 65 ta Prezident qarori, 169 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 66 ta idoraviy hujjatlar, 1 ta qonun, jami 313 ta normativhuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatda oliy ta'lif tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalişlarini belgilash, kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi va u hozirgi kunda amalga oshirib kelinmoqda[5]

Mamlakatimizning istiqboli shubhasiz bugungi avlodning bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarda mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonida inson qadrini ulug'lash, shaxs kamolati, rivoji, ma'naviy barkamolligi hamda shaxs va jamiyat manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi jarayoniga muhim qadriyat sifatida qarab, ta'lif-tarbiya tizimini isloh qilish, ilmiy kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish masalasini ustuvor soha sifatida belgilash oid ishlar rejali amalga oshirib kelinmoqda. Darhaqiqat, qaysi jamiyat ko'proq ma'naviy yetuk, ruhan pok, jismonan sog'lom komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazsa, ana shu jamiyat barqarorlik va barkamollikka erishishi muqarrardir.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konceptsiyasini tasdiqlash tog‘risidagi qarorida belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma’naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqeい hamda ahamiyatini saqlash va hatto tiklashga ehtiyoj sezilayapti. Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish lozim. Bundan tashqari, yosh avlodning kitobga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish kerak. Har qaysi davlat, har qaysi millat intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarayonlar juda murakkab. Pedagog talabalar bu bilim maskanida chuqr bilim egasi bo‘lib, yuqori natijalarga erishib kelmoqdalar. Buning boisi o‘qituvchilarning harakatidir. O‘qituvchilik oson kasb emas, aksincha juda mas’uliyatli va mashaqqatli kasbdir. Chunki jamiyatning butun taqdiri o‘qituvchining qo‘lidadir. Bu kasb egalari kechayu-kunduz ter to‘kib mehnat qilishadi. Oliy o‘quv yurtida talabalari o‘qituvchilardan quyidagi usullarni egallaydilar[2]:

- Pedagogik mahorat;
- o‘z fikrini ravon ifodalay olish;
- o‘quvchilar qiziqishini orttirish
- darsni to‘g‘ri tashkillay olish
- tahlil qilishga, taqqoslashga o‘rgatish va hokazo.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

Pedagogik ta'lif jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- masofaviy o'quv kurslarini va electron adabiyotlarni yaratish;
- kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxasislarning birlashishi;
- pedagoglar o'rtasida vazifaning taqsimlanishi;
- talabalarni iqtidoriga qarab kasbiy bilimlarni o'rgatish;
- o'rganilayotgan voqe-a-hodisalarni modellashtirish kabilalar orqali chuqur bilim egasi bo'lishga ko'mak beradi[4].

O'qituvchilar faoliyati davomida o'z bilim va malakalarini o'quvchi talabalarga ulashadilar.Ular o'quvchilarga bilimni yetkazib berishda turli usul va metodlardan foydalananadilar. Lekin bu qanday natija berayotgani bilan bir oz oz qiziqmaydilar. Xalqimizda bir maqol bor: "ustoz, otangdek ulug'dir." Bu so'zning zamirida chuqur ma'no va mazmun yashirin. Ustozlarning yomoni bo'lmaydi. Ularga shak-shubhasiz doimo ta'zimdamiz. Ularning hammalari shogirdlarini o'zlaridan o'zib ketganiga hursand bo'ladilar. Bugungi kun, o'qituvchilarga dars jarayoniga kreativroq yondashishni talab qilmoqda. Chunki o'quvchi uchun yangilik, yangicharoq yondashish e'tiborini yanada jalb qiladi. Unda ham bu jarayon nimalarnidur yaratish g'oyasini uyg'otadi. Kreativlik insonga:

- ijodga intilish;
- hayotga ijodiy yondashish;
- o'ziga doim tanqidiy baho berish;
- e'tiborlilik;
- tahlil etish;
- yaratuvchanlik kabi xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun Oliy o'quv yurti o'qituvchilari talaba yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda dars jarayonini kreativ yondashish orqali tashkillasalar maqsadga muofiq bo'ladi[3].

Xulosa

Talabalarning intellektual salohiyatini oshirish ta'lif jarayonining eng muhim maqsadlaridan biridir. Buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

innovatsion yondashuvlar keng joriy etilishi lozim. O‘qituvchilarning kreativ pedagogik metodlardan foydalanishi talabalar bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar intellektual rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Maqolada keltirilgan tavsiyalar talabalarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning ijtimoiy va kasbiy salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Z.T. Nishanova. “Rivojlanish psixologiyasi,pedagogic psixologiya”.
2. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
3. Numonova N. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogic texnologiyalar.
4. Nodira Egamberdiyeva- “Ijtimoiy pedagogika” Toshkent 2019.
5. B.Xamidxonov. Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda oliy ta’limning o’rni. 2023.
6. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O ‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 55-62).
7. Botirovich, X. S. Murodullo o ‘g, JOT, & Iskandar o ‘g ‘li, SB (2024). *PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. Modern education and development*, 11(3), 120-126.
8. Хайдардинов, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Экономика и социум*, (2-2 (117)), 669-672.
9. Khayriddinov, S. (2023). Cloud technologies as a tool for forming personal information educational environment. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(4), 72-76.
10. Abduqodirov, A. A., Yusupbekov, A. N., Suvonov, B. I., & Toshtemirov, R. T. (2022). Tabiiy gazni qayta ishlash jarayonining intellektuallashtirilgan boshqaruvida noaniq mantiq asosidagi modeldan foydalangan holda nazorat



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

qilish. *Инновационные подходы, проблемы, предложения и решения в науке и образовании*, 1(1), 100-108.

11. Boymurotovna, X. N., Asror o'g'li, A. O., & Rajabboyevna, O. K. (2025, March). KOMPYUTER VA ROBOTLAR BILAN O'ZARO ALOQA ORQALI IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING O'ZGARISHI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 63-70).